

kim majbur qilmasa ham muammoning ichiga kirishga harakat qiladi. U bilish ob'ektini omillarning tabiatini tushuntirib beradigan nakzariyani yaratishgacha yetkazadi va hodisalarning sababini tushuntirishga harakat qiladi. Shunday qilib, talabaning berigan vaziyat chegaralaridan chiqishiga halaqil qiluvchi psixologik to'siq olib tashlanadi. Bunday holda bir qator vaziyatlarni solishtirish zarurati bo'lmay bor-yo'g'i bitta muammoning yechimini topish bilan cheklanish mumkin bo'ladi, biroq buning uchun fenomenning isbotlarini topish zarur bo'ladi[3].

Kreativ talaba jadal aqliy faoliyatga ega bo'ladi, intellektual faollikning evristik va rag'batlantiruvchi-samarali darajalarining vakillari esa ekstensiv (keng) aqliy faoliyat bilan tavsiflanadi. Har bir vakilning qo'yilgan vazifaga yondoshuvi uning o'ziga xos xususimiyati hisoblanadi. Masalan, rag'batlantiruvchi-samarali darajaga ega bo'lgan inson berilgan darajada ish sur'atini oshirib boradi va o'z faoliyatini mexanik kengaytirilgan darajada takrorlaydi, evrist muammoni yechishning yangi-yangi usullarini qo'llaydi, kreativ inson muammoni yana va yana chuqur tadqiq qiladi, fenomenning nazariy tushuntirishlarini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guilford, J. (1967 b). Creativity, yesterday, today and tomorrow. Journal of Creative Behavior, 1(1), 3-14.
2. Charter Eleven. J.P. GUILFORD: A PIONEER OF MODERN CREATIVITY RESEARCH. CELEBRATING GIANTS AND TRAILBLAZERS IN CREATIVITY RESEARCH AND RELATED FIELDS.
3. Дианы Борисовны Богоявленской // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. № 3. 2007. С. 116—117.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATI

Alimova G.Q., TDPU "Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yosh davridagi shaxslararo munosabatlar muammosining psixologik nazariy adabiyotlarda o'rganilganligi tahlil qilingan. Maktabgacha yosh davrining o'ziga xos psixologik hususiyatlari va o'yinning maktabgacha yosh davrida shaxslararo munosabatlar tizimiga ta'siri mexanizmlari haqida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatni aniqlovchi o'yinli mashg'ulotlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosabat, maktabgacha yosh, psixologik hususiyat, o'yin

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shu munosabat bilan joriy yilning 8 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Jamiyatni rivojlantirish, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli farzandlarimizning tarbiyalanganlik darajasi bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan vazifalarni bajarish buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada rivojlantirish zamon talablari bilan uyg'unlashtirishda uzluksiz ta'limning bosh harakatlantiruvchi zamini maktabgacha ta'lim tizimidan bolalarga ma'naviy, ruhiy, jismoniy, axloqiy tarbiya berib maktab ta'limiga tayyorlashdir. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, balki fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushinish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Bola maktabga qadam qo'yayotganda qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashiga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmalari, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishiga o'rgatishgina emas, balki unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda bolada "Men" konsepsiyasini shakllantirishda muhimdir.

Bolalar jamoasini shakllantirish masalalari, bolalar bog'chasi guruhining o'ziga xos xususiyatlari va undagi shaxslararo munosabatlar, maktabgacha ta'lim muassasalarining bolalar individual psixologik xususiyatlarini shakllantirishga ta'siri maslasi - bularning barchasi tadqiqotchi psixologlarda alohida qiziqish uyg'otadi.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha Yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilish lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Shuning uchun ham bir qator fanlar - falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va pedagogikasining kesishmasida vujudga kelgan shaxslararo munosabatlar muammosi hozirgi zamonning eng muhim muammolaridan biridir. Bu muammo yosh avlodni tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun juda muhim bo'lgan "jamoaviy munosabatlar tizimidagi shaxs" muammosi bilan birlashadi [7]. Shaxslararo munosabatlar - bu birgalikdagi faoliyat jarayonida odamlarning o'zaro ta'sir qilish tabiati va usullarida ob'ektiv ravishda namoyon bo'ladigan, sub'ektiv ravishda odamlar o'rtasidagi tajribali munosabatlar. Bu odamlar bir-birini idrok etadigan va baholaydigan munosabatlar, yo'nalishlar, kutishlar, stereotiplar va boshqa moyilliklar tizimidir [3].

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim guruhlarini o'rganish psixologiyada o'ziga xos an'analarga ega. A.S.Makarenko asarlarida taqdim etilgan shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning asosiy qoidalariga asoslanib, bolalar bog'chasi guruhlarini psixologik tadqiqotlar 30-yillarda E.A.Arkin va A.S.Zaslujniydan boshlangan. 1950-yillardan

boshlab rus psixologiyasida shaxslararo munosabatlar muammosiga bag'ishlangan ko'plab asarlar paydo bo'ldi. Ular orasida bolalar bog'chasi guruhlarini alohida o'rganish bor edi. Bu mavzuda Ya.L.Kolominskiy, L.V.Artemova va boshqalarning alohida asarlari yozilgan.

Maktabgacha tarbiya psixologiyasi va pedagogikasi bu borada juda ko'p ishlarni amalga oshirganiga qaramay, ko'plab masalalar hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Ko'pgina o'qituvchilar, bolalar bog'chasi o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha bilimga ega emaslar. [3] Bolani shaxslararo munosabatlar ansamblida hisobga olgan holda, bolaning oilada va uning rivojlanish manbai bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitida rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal qilishga e'tibor qaratish lozim. Bu yosh davrida bolalarda taqlidchanlik yuqori darajada bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o'yindir. Etakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko'zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz. Yetakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik protsesslari anchagina o'sadi. O'yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

O'yin faqat tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasi bo'libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi xamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin bogchadagi ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishda markaziy urinda turadi.


O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon buladi. Chunki o'yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutqi, xayoli, xissiyoti, mexnatga oid malakalari va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin faoliyati va muloqotining asosiy ma'nosini bolaning atrofdagi voqelikni bilishi va "bolalar submadaniyatini" o'zlashtirishi, insonning ijtimoiy mohiyatini o'zlashtirishi tashkil etadi. Binobarin, bolaning shaxsiy rivojlanishi va uning boshqa odamlar bilan munosabatlarining shakllanishiga, bir tomondan, oila va unda shakllangan an'analar, shuningdek, tarbiyachi tomonidan yaratilgan ta'lim maydoni va ijtimoiy-madaniy tajriba katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni shaxslararo munosabtga kirishiga ulardagi: tashabbus, faoliyatdagi muvaffaqiyat (shu jumladan o'yin), muloqot qilish va tengdoshlarni tan olish, kattalarni tan olish, tengdoshlarning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish qobiliyati ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Shunday qilib, dastlab bola o'yin yoki mashg'ulot uchun tengdoshi bilan muloqotga kirishadi, unga qiziqarli faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tengdoshning fazilatlari undaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishlari rivojlanadi. Bu tengdosh bilan bog'lanish uchun sabab yaratadi, bunda bola tinglovchi, biluvchi va ma'lumot manbasini topadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida saqlanib qolgan shaxsiy motivlar o'zini tengdoshi bilan solishtirish, uning qobiliyatlari va tengdoshlari tomonidan qadrlanish istagiga bo'linadi. Bola o'z mahoratini, bilimini va shaxsiy fazilatlarini namoyish etadi, boshqa bolalarni o'z qadr-qimmatini tasdiqlashga undaydi. Muloqot motivi tengdoshning ularning biluvchisi bo'lish xususiyatiga muvofiq uning o'ziga xos fazilatlariga aylanadi [6].

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha davom etayotgan tadqiqot Toshkent shahridagi 567-MTMda o'tkazildi. Tadqiqotda 6-7 yoshli (katta maktabgacha yoshdagi) 100 nafar bola ishtirok etdi. J. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan sotsiometriya usulidan foydalanildi. Bu metod orqali shaxslararo munosabatlar tizimida bolaning sotsiometrik holati, munosabatlarning farovonlik darajasi va izolyatsiya indeksi aniqlandi.

Ushbu metod natijalarini tahlil qilsak, maktabgacha yoshdagi bolalarning katta guruhida 100 nafar boladan 20 nafari "yulduz", 63 nafari "afzal", 17 nafari "rad etilgan" maqomiga ega ekanligini aniqlashimiz mumkin. "e'tiborsiz" bolalar aniqlanmaga (1-rasm). Guruhda 4-5 boladan iborat barqaror mikroguruhlar mavjud bo'lib, ular birlasha oladi va birgalikda o'yinni tashkil qiladi.



1-rasm. Shaxslararo munosabatalarda bolaning sotsiometrik holati



2-rasm "Uy-daraxt-odam" chizma testi natijalari

Tadqiqotda keyingi qo'llanilgan metod muammoli vaziyatlardir. Biz qo'llagan "Quruvchilar" metodikasi bolalar munosabatlarining hissiy va amaliy jihatini (harakatlarning ijtimoiyligi, tengdoshlari bilan hissiy ishtiroki) ochib berishga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat: tanlovda tebranishlarning mavjudligi, tengdoshning harakatlariga aralashish, kattalar tomonidan tengdoshning so'zlariga munosabat va ijtimoiy harakatlar. Ushbu texnikaning emotsional-amaliy jihatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'quv guruhida tengdoshning harakatlariga moyillik va ishtirok etishning yuqori namoyon bo'lishi va tebranishlarning mavjudligi aniqlandi. Bu bir guruh bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning ustunligini ko'rsatishi mumkin - ular doimo o'z tengdoshlariga kerak bo'lgan tafsilotlarga, bir vaqtning o'zida xafa bo'lmasdan yoki xafa bo'lmasdan berilishadi. Bu shaxslararo munosabatlar rivojlanishining normal yosh dinamikasiga mos keladi.

Tadqiqotda foydalanilgan yan bir metodika J. Bakning "Uy-daraxt-odam" chizma testi edi. Bu proyektiv metodikaning maqsadi bolada boshqa bolalar bilan munosabatlarga ta'sir qiladigan muammolarni aniqlashdir. Ushbu uslub bizga shaxslararo munosabatlarning muammoli shakllarini aniqlash imkonini beradi, chunki nazariy qismda keltirilgan ushbu munosabatlarning rivojlanish dinamikasi har doim ham amalga oshirilmaydi. Bu bir guruh bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning ustunligini ko'rsatishi mumkin - ular doimo o'z tengdoshlariga kerak bo'lgan tafsilotlarga, bir vaqtning o'zida xafa qilmasdan yoki xafa bo'lmasdan berilishadi. Bu shaxslararo munosabatlar rivojlanishining normal yosh dinamikasiga mos keladi. Shaxslararo munosabatlarning muammoli shakllariga quyidagilar kiradi: tajavuzkorlik,

namoyishkorlik, uyatchanlik, norozilik. Ushbu muammoli shakllarni aniqlash ba'zi bolalarning "mashhurliqi" va guruhdagi boshqa bolalarning "mashhurliqi" ning ba'zi sabablarini tushunishga imkon beradi. Ushbu usul bizga oldingi tadqiqotlar ma'lumotlarini to'ldirishga imkon beradi. 25 nafar bolada namoyishkorona xulq-atvor elementlari, 50 nafar bolada tajovuzkorlik, 15 nafar bolada norozilik, 10 nafar bolada tortinchoq xulq-atvor shakllari ustunlik qilishi aniqlandi (2-rasm).

Tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlarni tahliliga ko'ra, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

shaxslararo munosabat muhim ijtimoiy psixologik hodisalardan biri bo'lib, turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, insonlar hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emotsional, motivatsion, kognitiv va regulativ qirralarning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv ehtiyoji sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuv va kamolotning asosiy omili negizi, mexanizmi vazifasini bajaradi;

maktabgacha yosh davridagi shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatining negizi bolaning psixik dunyosi, ehtiyojlari, motivatsiyasi, xarakter xislati, individual tipologik xususiyati, qobiliyat e'tiqodi, aql zakovati kabi fazilatlar, sifatleri namoyon bo'lishi, kechishi, to'g'ri rivojlanishi bilan baholanadi.

maktabgacha yosh davridagi shaxslararo munosabatda ulardagi yetakchi faoliyati o'yin muhim rol o'ynashi nazariy ma'lumotlarga tayangan holda aniqlandi;

turli xarakatlarning mazmuni va shaxslararo munosabat bilan bog'liq holat ekanligi aniqlandi;

maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining cheklanishi shaxslararo munosabatlar tizimiga to'sqinlik qilishi mumkin;

maktabgacha yosh davrida o'yin ijtimoiy ahamiyat kasb etishi, bolalarga insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kirishi tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" <https://lex.uz/docs/-4327235#-4328016>

2. Арушанова А. Коммуникативное развитие: проблемы и перспективы: сценарии// Дошкольное воспитание. — 1998. — № 8. — С. 96–107.

3. Бодалев А. А. О взаимосвязи общения и отношения// Вопросы психологии. — 1994. — № 1. — С. 122–127.

4. Веракса Н. Е., Веракса А. Н. Развитие ребенка в дошкольном детстве: Пособие для педагогов дошкольных учреждений. — М.: Мозаика-Синтез, 2006. — 72 с.

5. Выгодский Л. С. Педагогическая психология. — М.: Просвещение, 1991.-190 с.

6. Ежова Н. Диагностика ценностных ориентаций детей старшего дошкольного возраста// Детский сад от А до Я. — 2006. — № 5. — С. 152–156.

7. Исмагилова А. Г. Стиль педагогического общения воспитателя детского сада// Вопросы психологии. — 2000. — № 5. — С. 65–72.

8. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. T., 2007 y.

9. N.G.Kamilova. Detskaya psixologiya. Uchebnoye posobiye. "Voriz-nashriyot" T.-2007.